

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



O'ZBEK TILI VA UNI O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

fani bo'yicha

SILLABUS

Bilim sohasi:	100 000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110 000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60111400 – O'zbek tili va adabiyoti
Ta'lim shakli	kechki

Toshkent–2025

Fan/modul kodi 302NKRA 3 4	Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili o'zbek	Ishlab chiqilgan o'quv yili 2025/2026							
Semestr	Har bir semestrdagi modulning nomi	ECTS – Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
				Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy	laboratoriya		
7	Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari	4	4	60	20	20	20	0	60	120
	Jami:	4	4	60	20	20	20	0	60	120

1. FANNING MAZMUNI

Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari – bo'lajak mutaxassisni ilmiy-metodik jihatdan ta'lim jarayoniga tayyorlaydigan ta'limiy kurs. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini, shuningdek, o'qib hamda tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishga oid metodika bilan tanishtirishdan iborat.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

- ona tili ta'limida nutqiy ko'nikmalarining pedagogik-psixologik asoslari, og'zaki va yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlari, o'qib tushunish, tinglab tushunish, anglash ko'nikmalari, nutq o'stirish mazmuni va usullari, ta'lim jarayonida yozma ishlarni o'tkazish va baholash mezonlari haqidagi bilimlarga;
- o'qib tushunish, tinglab tushunish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga oid metodik ishlarni loyihalashtirish va tashkil etish ko'nikmalariga;
- nutq o'stirish mashg'ulotlarini aniq va maqsadli tashkil eta olish; ta'lim jarayonida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqni rivojlantira olish malakalariga ega bo'lishi lozim.

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari fani interfaol metodlar, hamkorlikda o'qitish; jamoaviy taqdimot; individual loyihalar asosida o'qitiladi.

4. TALABALARNING KREDITLARNI OLISH TARTIBI

joriy etish tartibi to'g'risida”gi nizomga asosan *Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari fanidan* 5- semestr **120 soat** o'quv yuklamasini o'zlashtirgan, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra *ijobiy baholanib kasbiy kompetensiyalarini yetarli darajada egallagan* talabaga 7-semestr **4 kredit** beriladi.

Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda kreditlar berilmaydi.

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida”gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

Talabalarning bilimini baholash mezonlari:

5 (a'lo) baho – talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

4 (yaxshi) baho – talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, ammo ifodalay olmaydi, fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

3 (qoniqarli) baho – talaba olgan bilimini amalda qo'llashda qiynaladi, fanning mohiyatini chala tushunadi, ifodalashda mohiyatini to'liq yetkaza olmaydi, ammo tasavvurga ega deb topilganda;

2 (qoniqsiz) baho – talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda baholanadi.

Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat semestr davomida 2 marta o'tkaziladi.

1-oraliq nazorat: o'tilgan mavzular asosida **yo'zma** shaklda o'tkaziladi.

Har bir talaba билет asosida berilgan savollarga javob yozadi. Билет savollari ikkittadan iborat bo'lib, savollarga javob yozish uchun 40 daqiqa vaqt ajratiladi.

1-oraliq nazorat uchun savol namunasi:

1. O'qib tushunish bosqichlarini izohlab yozing.
2. Insho yozish talablari va baholash mezonini yoritib bering.

2-oraliq nazorat: o'tilgan mavzular asosida **og'zaki** shaklda o'tkaziladi.

Har bir talaba билет asosida berilgan savollarga javob beradi. Билет savollari ikkittadan iborat bo'lib, biri nazariy, ikkinchisi amaliy topshiriqqa yo'naltirilgan. Umumiy savollar oldindan e'lon qilinadi, 2-savol uchun yaratilgan topshiriqlarini slayd asosida taqdimot qilishga tayyorlanib kelishadi. Tayyorlanish uchun 8-10 daqiqa vaqt ajratiladi. Har bir talabani tinglash uchun 5-10 daqiqa vaqt beriladi.

2-oraliq nazorat uchun savol namunasi:

1. Nutq so'zlash strategiyalari haqida gapiring.

2. O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish uchun qanday usullar samarali natija beradi, sizningcha? (Biror bir metod yo usulni taqdimot asosida sinf va mavzu kesimida batafsil tushuntirib bering).

Oraliq nazoratning baholash mezonlari:

Birinchi savolga 2,5 ball, ikkinchi savolga 2,5 ball, umumiy javob maksimal 5 (besh) baldan baholanadi.

Savolnomadagi har bir savol uchun umumiy baholash mezonlari:

talaba mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritgan bo'lsa, olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llay olgan bo'lsa, imloviy xatolarga yo'l qo'ymagan bo'lsa, yozuvi me'yor talablari darajasida bo'lsa, misollarni yozishga ijodiy yondashgan bo'lsa 5 (best) ball bilan baholanadi;

talaba mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritgan bo'lsa, olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llay olgan bo'lsa, yozuvi me'yor talablari darajasida bo'lsa, ammo 1 tadan 2 tagacha imloviy xatolarga yo'l qo'yg'an bo'lsa yoki misollarni yozishga ijodiy yondashmagan bo'lsa 4 (to'rt) ball bilan baholanadi;

talaba mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritgan bo'lsa, ammo olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llay olmasa, 3 tadan 5 tagacha imloviy, 2-3 ta tinish belgilari xatolariga yo'l qo'yg'an bo'lsa, misollarni yozishga ijodiy yondashmagan bo'lsa 3 (uch) ball bilan baholanadi;

talaba mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritmagan bo'lsa, olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llay olmasa, 5 tadan 6 tagacha imloviy xatolarga yo'l qo'yg'an bo'lsa, 4-5 ta tinish belgilari xatolariga yo'l qo'yg'an bo'lsa, misollarni yozishga ijodiy yondashmagan, ko'chirmakashlikka yo'l qo'yg'an bo'lsa 2 (ikki) ball bilan baholanadi; talaba mavzu yuzasidan to'liq ma'lumotga ega bo'lmagan bo'lsa, olingan nazariy bilimlarni amalda qo'llay olmagan bo'lsa, 7 tadan 8 tagacha imloviy, 5-6 ta tinish belgilari xatolariga yo'l qo'yg'an, ko'chirmakashlikka yo'l qo'yg'an bo'lsa 1 (bir) ball bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat: semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha loyiha taqdimoti shaklida o'tkaziladi.

Har bir talabaga semestr boshlangan vaqtda individual va guruh bilan hamkorlikda ishlash uchun loyiha taqdimoti talablari (asosiy va qo'shimcha) va baholash mezonlari (90 ballik) taqdim etiladi. Amaliy ishlash jarayoni darslar davomida va darsdan tashqari (mustaqil ta'lim soatlari) vaqtda talaba bilan shug'ullaniladi.

Taqdimotdagi talablar 40% nazariy va 60% amaliy tarzda belgilanadi. Yakuniy nazorat jarayonida tayyorlangan loyiha ishini taqdimot qilish uchun har bir talabaga maksimal 10 (o'n) daqiqa vaqt ajratiladi.

Yakuniy nazorat uchun savol namunasi:

1. Sinfilar kesimida o'quvchilarning o'qib tushinish, tinglab tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun topshiriqlar ishlab chiqing. Shu topshiriqlaringiz asosida 2 soatlik dars loyihasini yarateng.

Loyiha taqdimotidagi belgilangan talablar doirasida tayyorlangan javob uchun umumiy baholash mezonlari:

talaba loyihaning maqsadini aniq belgilay olgan, tayyorlangan topshiriqlar dastur va reja muvofiq, loyihani bajarish rejasini to'g'ri tuzgan, mazmun jihatdan tugallangan, mavzuga mos o'quv materiali to'g'ri tanlangan (materialning hajmi, berilgan misollarning sinflar bo'yicha taqsimoti), tayyorlangan topshiriq beriladigan lingvistik bilim bilan uyg'un, shakllantirilayotgan ko'nikmalarni inobatga olgan, o'quvchining yoshi va dunyoqarashiga mos, o'quvchidan kutiladigan natijani izohlay olish, sifati (dizayn), hajmi, darsning qaysi bosqichiga mo'ljallanganligi, loyihani bajaruvchilarning mustaqil ishlab chiqqan metod va texnologiyalari mavjud, taklif qilingan yechimda ijodkorlik, kreativ yondashuv mavjud bo'lib, zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq bo'lsa, loyihaning shakli va dizayni, imloviy, uslubiy, texnik xatolar kuzatilmasa 80 baldan 90 balgacha baholanadi;

talaba loyihaning maqsadini aniq belgilay olgan, tayyorlangan topshiriqlar dastur va reja muvofiq, loyihani bajarish rejasini to'g'ri tuzgan, mazmun jihatdan tugallangan, mavzuga mos o'quv materiali aniq tanlangan (materialning hajmi, berilgan misollarning sinflar bo'yicha taqsimoti), tayyorlangan topshiriq beriladigan lingvistik bilim bilan uyg'un, shakllantirilayotgan ko'nikmalarni inobatga olgan, o'quvchining yoshi va dunyoqarashiga mos emas, o'quvchidan kutiladigan natijani izohlay olish, sifati (dizayn), hajmi, darsning qaysi bosqichiga mo'ljallanganligi, loyihani bajaruvchilarning mustaqil ishlab chiqqan metod va texnologiyalari kam yoki chala ochib berilgan, taklif qilingan yechimda ijodkorlik, kreativ yondashuv mavjud bo'lib, zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq bo'lmasa, loyihaning shakli va dizayni, imloviy, uslubiy, texnik xatolar kuzatilsa 70 baldan 79 balgacha baholanadi;

talaba loyihaning maqsadini aniq belgilay olmagan, tayyorlangan topshiriqning dastur va reja muvofiq, ammo loyihaning bajarish rejasini to'g'ri tuzmagan, mazmun jihatdan tugallanmagan, mavzuga mos o'quv materiali tanlay olmagan (materialning hajmi, berilgan misollarning sinflar bo'yicha taqsimoti), tayyorlangan topshiriq beriladigan lingvistik bilim bilan uyg'un emas, shakllantirilayotgan ko'nikmalarni inobatga olgan, o'quvchining yoshi va dunyoqarashiga mos, o'quvchidan kutiladigan natijani izohlay olmaslik, sifati (dizayn), hajmi, darsning qaysi bosqichiga mo'ljallanganligi e'tiborga olmagan, loyihani bajaruvchilarning mustaqil ishlab chiqqan metod va texnologiyalari to'liq ishlanmagan, taklif qilingan yechimda ijodkorlik, kreativ yondashuv mavjud bo'lib, zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq bo'lmasa, loyihaning shakli va dizayni, imloviy, uslubiy, texnik xatolar kuzatilsa 60 baldan 69 balgacha baholanadi;

talaba loyihaning maqsadini aniq belgilay olmagan, tayyorlangan topshiriqning dastur va reja muvofiq emas, loyihani bajarish rejasini to'g'ri tuzolmagan, mazmun jihatdan tugallanmagan, mavzuga mos o'quv materiali tanlay olmagan (materialning hajmi, berilgan misollarning sinflar bo'yicha taqsimoti), tayyorlangan topshiriq beriladigan lingvistik bilim bilan uyg'unligini nazardan chetda qoldirgan, o'quvchidan kutiladigan natijani izohlay olmaslik, sifati (dizayn), hajmi, darsning qaysi bosqichiga mo'ljallanganligi, metod va texnologiyalarni ishlab chiqishda ko'chirmakashlikka yo'l qo'yg'an, taklif qilingan yechimda ijodkorlik, kreativ yondashuvning mavjud emas, zamonaviy ta'lim talablariga muvofiq

bo'lmasa, loyihaning shakli va dizayni, imloviy, uslubiy, texnik xatolar kuzatilsa 0 balidan 59 balgacha baholanadi;

Izoh: Talabani oraliq va yakuniy nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish natijalarini inobatga olinadi.

Nazoratlarining o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

7-SEMESTR

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

“Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)” o'quv fanining mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi, har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va qisqa ifodalar orqali ta'lim oluvchilarga davlat ta'lim standartlari va malaka talablari asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar qamrab olingan holda ifodalab beriladi. Asosiy nazariy qism modullar shaklida berilishi mumkin.

T/R	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish pedagogik-psixologiyistik muammo sifatida	nutq o'qirish, psixologiyistik, neyrolingvistik	2
2	O'qib tushunish bosqichlari	tayyorlanish, tushunish, qayta aloqa	2
3	Tinglash va anglash ko'nikmasi	audiomatn, eksplitsiv ma'no, implitsiv ma'no	2
4	Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlari	yo'zma nutq, psixologiyistik, pedagogika	2
5	Ona tili ta'limida yozma ishlar yozish mazmuni	esse	2
6	Yozma nutqdagi matn xatolar ustida ishlash	tashkiliy-texnik, grammatik va uslubiy xatolar	2
7	Og'zaki nutqning o'ziga xos xususiyatlari	og'zaki nutq, psixologiyistik, pedagogika	2
8	Fikrni og'zaki ifodalash tartibi va usullari	og'zaki nutq, kirish, asosiy qism, xulosa	2
9	Nutqiy ko'nikmalarni hayotiy ko'nikmalar asosida rivojlantirish	og'zaki nutq, yo'zma nutq, hayotiy ko'nikma	2
10	DTS, MO'D va o'quv dasturlarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga doir qo'yilgan talablar	DTS, MO'D, o'quv dasturlari, nutqiy kompetensiya	2
		Jami	20

2. Amaliy mashg'ulotlar

“Amaliy mashg'ulotlar” o'quv fanining mohiyati va nazariy mavzulariga mos ravishda amaliy mashg'ulotlarning mavzulari, ushbu mashg'ulotlarni o'tkazish shakllari, unda qo'llanishi tavsiya etiladigan texnologiyalar, usullar hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma'lumotlar yoritiladi. Shuningdek, kurs loyihasi va kurs ishlari, ijodiy ishlar mohiyati, mazmuni, maqsadi, mavzulari ularni bajarish shakllari hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma'lumotlar yoritiladi. Shu bilan birga ushbu qismda o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarining maqsadi, vazifasi, shakli, mazmuni, amaliyot jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo'lgan yakuniy ishlar shakli yuzasidan qisqa uslubiy ko'rsatmalar beriladi.

T/R	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Nutqiy rivojlantirishga oid metodik qarashlar	nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish	2
2	O'qish strategiyasi	tayyorlanish, tushunish, qayta aloqa	2
3	Anglash ko'nikmasi	so'z, gap, matn, eksplitsiv ma'no, implitsiv ma'no	2
4	Yozish strategiyasi	tayyorlanish, yozish, tahrir	2
5	Xabar matn yozish va uning tahlili	matn tuzilishi, mazmun	2
6	Tasviriy-tasvifiy matn yozish va uning tahlili	matn tarkibi	2
7	Insho va uning turlari	yo'zma matn	2
8	Yozma nutqdagi matn xatolar ustida ishlash	imlo, punktuatsion, uslubiyat, matn tahriri	2
9	Fikrni og'zaki adabiy tilda ifodalash usullari	oddiy va adabiy so'zlashuv	2
10	Og'zaki muloqotdagi xatoliklar	parazit pauza, olinma so'zlar	2
		Jami	20

Seminar mashg'ulotlari

“Seminar mashg'uloti” o'quv fanining mohiyati va nazariy mavzulariga mos ravishda amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarining mavzulari, ushbu mashg'ulotlarni o'tkazish shakllari, unda qo'llanishi tavsiya etiladigan texnologiyalar, usullar, vositalar zarur hollarda muhokama etiladigan mavzular, masalalar, laboratoriya ishlarning mazmuni, maqsadi hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma'lumotlar yoritiladi. Shuningdek, kurs loyihasi va kurs ishlari, ijodiy ishlar mohiyati, mazmuni, maqsadi, mavzulari ularni bajarish shakllari hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma'lumotlar yoritiladi. Shu bilan birga ushbu qismda o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarining maqsadi, vazifasi, shakli, mazmuni,

amaliyot jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo'lgan yakuniy ishlar shakli yuzasidan qisqa uslubiy ko'rsatmalar beriladi.

T/R	Seminar mashg'uloti mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Nutqiy rivojlantirishga oid nazariy qarashlar	nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish	2
2	O'qib tushunish bosqichlari	tayyorlanish, tushunish, qayta aloqa	2
3	Eshitib tushunish ko'nikmasi	audiomatin	2
4	Essening yozilish tartibi	muhoqama esse	2
5	Bayon va uning turlari	og'zaki bayon	2
6	5-11-sinf o'quvchilari uchun esse mavzulari bankini yaratish	esse uchun mavzular	2
7	Diktant va uning baholanishi	ta'limiy diktant	2
8	Rasmiy matn yozish amaliyoti	rasmiy matn	2
9	Nutq so'zlash strategiyasi	tayyorlanish, so'zlash, dalillar, ibora, maqol...	2
10	Bahlashish qoidalarini	nutqiy odob	2
Jami			20

3. Mustaqil ta'lim ishlari

“Mustaqil ishini tayyorlashda fan xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;

“Til va adabiyot ta'limi”, “Xalq ta'limi” kabi sohaga oid ilmiy jurnallardagi maqolalar bilan tanishish va tezislar tayyorlab borish;

seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik;

berilgan mavzular bo'yicha o'qituvchi rahbarligida ilmiy-ijodiy ishlanmalar va loyihalar tayyorlash.

Taqdimotlar seminar mashg'ulotlarda muhoqama qilinadi va baholanadi.

T/R	Mustaqil ta'lim mavzulari	O'quv mashg'ulot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1	Metodik jurnallardan nutq o'qitishga oid maqolalar bilan tanishish	amaliy	maqolalar tahlili	4
2	Fikrni og'zaki ifodalashda ravonlik	amaliy	ravonlik	4
3	Fikrni og'zaki adabiy tilda ifodalash	amaliy	adabiy til	4
4	Og'zaki nutqni boyitish usullari	amaliy	ibora, maqol, hikmatli so'zlar	3

5	Fikrni og'zaki ifodalashda vositalardan foydalanish	adabiy tilda noverbal	amaliy	noverbal vositalar	3
6	Subbat va madaniyati	bahslashish	amaliy	nutq madaniyati	3
7	Ijodiy matn va uning turlari		amaliy	matn turlari	3
8	Qanday yozish kerak? Yozma matn yaratishni rejalashtirish		amaliy	yoziq strategiyalari	3
9	Yozma matn kengaytirish va qisqartirish		amaliy	matn, kengaytirish, qisqartirish	3
10	Ona tili ta'limida yozma ishlarni tashkil etish		amaliy	yoziq ish turlari	3
11	Nutq va muloqot		amaliy	nutqiy vaziyat, muloqot	3
12	Og'zaki nutqdagi xatolarni bartaraf etish usullari		amaliy	masq va topshiriqlar	3
13	Yozma matnning tarkibiy qismlarini shakllantirish tartibi		amaliy	kirish, asosiy qism, xulosa	3
14	Yozilgan inshoga taqriz yozish		amaliy	adabiy, erkin, ilmiy	3
15	Ijodiy bayonga taqriz yozish		amaliy	ijodiy bayon	3
16	Insho uchun mavzu tanlash		amaliy	sinflar kesimida	3
17	Esse uchun mavzu tanlash		amaliy	sinflar kesimida	3
18	Bayonlar to'plamini yaratish		amaliy	sinflar kesimida	3
19	So'zlash va yoziq strategiyalari		amaliy	loyiha	3
Jami					60 s.

6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar:

1. Asilova G., Achik F. Nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 114 b.
2. Babayeva D. Nutq o'qitish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). – T.: Barkamol fayz media, 2018, – 432 b.
3. Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmizayeva Sh., Ziyodullayeva G., Shamsiyeva M. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
4. Yuldasheva D. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). – Buxoro: OOO “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2021. – 424 b.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixologiyistik asosi. // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiali. – Toshkent, 2019.

2. Ona tilidan zamonaviy darsliklar (6-, 7-, 10-sinf). – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
3. Mavlonova K. va b. Matn tuzilishiga oid qoidalar. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 86 b.
4. Йўлдошев Р.А., Рихсиева М.М. Инлолардаги матний хатолар, уларни тузатиш методикаси. –Тошкент, 2018

Axborot manbalari:

1. <https://ilmiy.bmti.uz/bilib/files/87/Nutq%20ostirish%20nazariyasi%20va%20metodikasi.pdf>
2. <https://jspt.uz/wp-content/uploads/2020/01/Nutq-ostirish-uslubiyati.pdf>
3. <https://mbaza.uz/anywork/ravon-nutq-tushunchasi-va-uni-rivojlantirish-vazifalari/>
4. <https://www.sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/1389>

7. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 28-avgustdagi 2-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri, f.f.d. (DcS), professor S.Muhamedova  (imzo)
Tuzuvchi: S.Kuldasheva  (imzo) O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dots.v.b., p.f.f.d.(PhD)
Taqrizehilar: G. Asilova  (imzo) O'DJTU professori, pedagogika fanlari doktori. M.Shodmonova  (imzo) O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD).

